

Latviya Fanlar akademiyasi prezidenti O'zbekiston Fanlar akademiyasiga tashrif buyurdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Latviya Fanlar akademiyasi prezidenti, kimyogar Ivars Kalvinsh tashrif buyurdi. Mehmonni FA prezidenti Bexzod Yuldashev kutib oldi. Uchrashuvda FA bo'limiy kotibi G'.Baxadirov, vitse-prezident S.Mirzayev, akademik S.Baxramov, Kimyo-biologiya bo'limi rahbari J.Tashpulatov, Immunologiya va inson genomikasi instituti direktori T.Aripova, Bioorganik kimyo instituti direktori o'rinbosari A.To'rayev, O'simlik moddalari kimyosi instituti direktori Sh.Sagdullayevlar ishtirok etdi.



Uchrashuvda har ikki tomon fanlar akademiyalari, faoliyat yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berildi va hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv so'nggida kelgusida hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, hamkorlik yo'nalishlari va ularni yanada kengaytirishga kelishib olindi.